



**Ilmiy amaliy
jurnal
№ 2 (4)
2026**

**YANGI
O'ZBEKISTON
IQTISODIYOTI**

“YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI” *jurnali 2-son 2026 yil*

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLY TA‘LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

**MIRZO ULUG‘BEK NOMIDAGI
O‘ZBEKISTON MILLIY UNIVERSITETI**

YANGI O‘ZBEKISTON IQTISODIYOTI

2

ISBN 978-9943-5256-3-4

Toshkent – 2026

MUNDARIJA

Аслонов С.М., Амиджанова М.М. Развитие бизнес-идей (стартапов) предпринимательской деятельности в Республике Таджикистан.....	7
Умаров И.Ю. Современные тенденции инновационного развития пищевой промышленности Узбекистана.....	13
Akbaraliyeva D., Mirzamahmudova M. Bank tizimi tarixi va rivojlanishi.....	16
Mamajonova N.A. Qurilish korxonalarida innovatsion boshqaruv faoliyati samaradorligini baholash ko‘rsatkichlari arxitekturasi.....	22
Ahmadkulov D.R., Xamrayev O.Y., Khattobov U.B. Kriptovalyutaga soliq solishda jahon tajirabasi va muammolar.....	25
Toshpulatov A.M. Qurilish materiallari sanoati korxonalarining ishlab chiqarish hajmini baholash usullari.....	30
Bahromov Sh.F. Jahonda to‘g‘ridan-to‘g‘ri xorijiy investitsiyalarning (TXXI) iqtisodiy rivojlanish bilan bog‘liqligini tahlili.....	34
Kalmuratov B., Izzetov B., Yusupova J., Shamuratova A. Calculation in econometric models of human capital financing in innovation management in Uzbekistan.....	39
Sultonov B.M. Oilaviy korxonalar faoliyatini boshqarishning tashkiliy-iqtisodiy mexanizmiga ta‘sir etuvchi omillar va ularni baholash asoslari.....	43
Юсупов М.Х. Фарғона вилояти маҳаллаларида ижтимоий омилларнинг иқтисодий барқарорликка таъсири: демография, гендер ва миграция таҳлили.....	47
Жаббаров К.Й., Жалолов И.Х., Эркинов М.Д. Молиявий ҳисобот тизимининг моҳияти ва шаклланиш босқичлари.....	57
Гулямова Н.Х. Саноат корхоналарини инновацион ривожланиши ва миллий иқтисодиёт ўсиши.....	61
Arziboyeva R.S. Banklarda asosiy vositalar va mablag‘lar hisobini takomillashtirish.....	64
To‘raboyev Q.Q. Raqamli iqtisodiyot sharoitida mamlakatimizda soliq tizimini modernizatsiya qilish va sun‘iy intellekt hamda Big Data yordamida nazorat.....	67
Tojiboyev I.I. Raqamli biznes va elektron tijoratni soliqqa tortishning dolzarb masalalari va yechimlari.....	70
Xolmirzayev I.O. Kichik biznes va tadbirkorlik subyektlari faoliyatining rivojlantirishning iqtisodiy yo‘llari.....	74
Saidova M.J. Sanoat tarmoqlari transformatsiyasi sharoitida texnologik eskirish va modernizatsiya muammolari.....	79
Usmonova N.A. Andijon viloyatida kichik korxonalar faoliyat samaradorligiga ta‘sir etuvchi omillarni statistik va ekonometrik tahlil qilish.....	83
Xaydarov M.T., Jannazarova G.K. Bozor infrastrukturasi va uning rivojlanish istiqbollari.....	87
Худайназарова Д.Г. Фармацевтика корхоналарида харажатларга доир ахборотларни бухгалтерия ҳисоботларида очиб бериш тартибини такомиллаштириш.....	93
Madaminov A.M. O‘zbekistonda sanoat tarmoqlari faoliyatida oziq-ovqat sanoati rivojlantirish istiqbollari.....	99
Zufarova G.A. Kambag‘al va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish masalalari.....	103
Ergashev I.I. Kichik korxonalar investitsiyaviy jozibadorligini samarali boshqarishda jahon amaliyoti tajribasi.....	106
Sativaldiyeva G.X. Ijara munosabatlarini mohiyati, ahamiyati va tasniflanishi.....	110
Kamilova A.N. Sanoat korxonalarida mehnat unumdorligini oshirishda mehnatni normalashtirish tizimining o‘rni va ahamiyati.....	115
Базарова Г.Г. Занятость населения в Узбекистане – теоретико-методологические основы анализа и практические механизмы решения проблем.....	119
Turabov B.T. Byudjet taqchilligi va xalqaro moliyaviy oqimlarning ta‘siri.....	125
Xamzaev A.N. Mamlakatimizda kapital bozorini rivojlantirish yo‘llari.....	131
Xamzaev A.N., Mirzajonov M. Mamlakatimizdagi xususiy korxonalarining raqobatbardoshligini oshirish yo‘llari.....	136

Raximova L.Sh. Innovatsion iqtisodiyot sharoitida ayollar tadbirkorligining roli va uning turmush farovonligiga ta'siri.....	141
Nosirov S.N. ESG tamoyillarini joriy etish orqali sug'urta kompaniyalarining moliyaviy barqarorligini oshirish mexanizmlari.....	146
Maxkamov X.M. Tijorat banklarida muammoli kreditlar ulushini kamaytirishning iqtisodiy mexanizmlarini takomillashtirish.....	150
Hamrakulova M.F. Sanoat korxonalarida innovatsion boshqaruv mexanizmlarining mahsulot sifati va bozor raqobatbardoshligiga ta'siri.....	153
Mirzayeva L.S. O'zbekiston qimmatli qog'ozlar bozoridagi aksiyalar likvidligini oshirish yo'llari.....	157
Очилов Ж.Ж. Инновацион ривожланишда кичик бизнес фаолияти экотизимининг роли..	160
Usubjonov Z.V. Qurilish materiallari bozori mohiyati va uning xususiyatlari.....	165
Bekmurodov N.X. Hududiy iqtisodiy rivojlanishning nazariy asoslari va konsepsiyalari.....	170
Yusupova M.B. Zamonaviy boshqaruv tizimi va strategik boshqaruv hisobi.....	175
Xudayberdiyev O.A. Globallashuv sharoitida elektron tijorat orqali tadbirkorlik subyektlarining xalqaro savdo munosabatlarini rivojlantirish mexanizmlari.....	179
Bo'stonova N.A. Andijon viloyatida kichik biznes subyektlarining salohiyatini tahlili.....	187
Bo'stonova N.A., Nematjonova R.D. O'zbekistonda aholining daromadlari va iste'mol xarajatlarining biznes rivojlanishiga ta'siri.....	192
Hamidova Sh.O. Sanoat korxonalarida mehnatni tashkil etish va boshqarish samaradorligi tahlili.	196
Abdullayeva Z.S. Maxsus iqtisodiy zonalar faoliyatining ijtimoiy va institutsional samaradorligi.	199
Duvshatova N.K. Hududlararo iqtisodiy nomutanosiblikni tartibga solishda investitsion yondashuvlarning samaradorligi.....	203
Усманова А.Б. Цифровая составляющая устойчивого развития региональной туристской системы (на примере Бухарской области).....	207
Qidirniyazov A.Sh. Uy-joy qurilishida kapital qo'yilmalar hajmi va yakuniy natijalar o'rtasidagi bog'liqlikni ekonometrik modellashtirish.....	213
Dexkanova Sh.K. Aylanma iqtisodiyotning barqaror rivojlanishdagi ro'li.....	217
Gulimboyev S.I., Rejapov X.X. Aholining farovonligini ta'minlashda ijtimoiy qo'llab-quvvatlashning o'rni.....	221
Mamatov B.S. O'zbekistonning investitsion imkoniyatlari: asosiy tendensiya va natijalar.....	226
Kamoldinova N.A. Ayollar tadbirkorligini rivojlantirish – ular bandligini ta'minlashning asosi.	231
Aminboyev J.O. Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlash: nazariy va amaliy yondashuvlar.....	235
Maxramova N.Y. Strategik menejmentda kadriyatlar zanjiri: raqobatbardoshlikni oshirishning konseptual asoslari.....	241
Usmanova S.S. Innovative development of the pharmaceutical industry.....	245
Faxriddinova N.N. Yashil tadbirkorlik va uning iqtisodiyotdagi o'rni.....	250
Захирова Г. Тиббий туризм хизматлари бозори ривожланишининг хориж тажрибаси.....	254
Абдуллоев А.Ж. Барқарор ривожланиш стратегияси асосида минтақавий саноатлашувни амалга оширишнинг хорижий мамлакатлар амалиёти.....	258
Sharapova N.K. Hududlarni barqaror rivojlantirish dasturlarini xalqaro standartlar tizimiga moslashtirish imkoniyatlari.....	264
Rahmatullayeva D.O. Demografik omillar va bandlik samaradorligi o'rtasidagi munosabatlar..	272

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yhati.

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2023 yil 11-sentabrdagi PF – 158 – sonli “O‘zbekiston – 2030” strategiyasi to‘g‘risidagi Farmoni
2. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 3-dekabrdagi “Xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PF-240-son Farmoni.
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 14-martdagi “Oila va xotin-qizlarni qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-103-son qarori.
4. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 7-martdagi “Xotin-qizlar tadbirkorligini yo‘lga qo‘yish va rivojlantirishni qo‘llab-quvvatlashga oid qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi PQ-122-son qarori
5. “Шавкат Мирзиёев раислигида хотин-қизларни қўллаб-қувватлашга бағишланган йиғилишда аёллар учун қандай енгилликлар киритилди”- 1.03.2022-й. <https://review.uz/oz/post/shavkat-mirziyoyev-raisligida-xotin-qizlarni-qollab-quvvatlashga-bagishlangan-yigilishda-ayollar-uchun-qanday-engilliklar-kiritildi>.
6. <https://gender.stat.uz/uz/qo-shimcha-ko-rsatkichlar/iqtisodiy-resurslar>
7. Qaysi hududda tadbirkor ayollar rahbarligidagi kichik korxonalar va mikrofirmalar soni ko‘p? <https://www.samstat.uz/uz/matbuot-markazi/qo-mita-yangiliklar/14205-qaysi-hududda-tadbirkor-ayollar-rahbarligidagi-kichik-korxonalar-va-mikrofirmalar-soni-ko-p>
8. <https://daryo.uz/2025/08/22/ozbekistonda-ayollar-rahbarlik-qiluvchi-kichik-korxonalar-va-firmalar-soni-ochiqlandi/?ysclid=mgl66ypnpw928629840>

UDK:631.16

**AMORTIZATSIYA HISOBIDA FOYDALI XIZMAT MUDDATINI ANIQLASH:
NAZARIY VA AMALIY YONDASHUVLAR**

**ОПРЕДЕЛЕНИЕ ПОЛЕЗНОГО СРОКА СЛУЖБЫ В УЧЁТЕ АМОРТИЗАЦИИ:
ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ И ПРАКТИЧЕСКИЕ ПОДХОДЫ**

**DETERMINATION OF USEFUL LIFE IN DEPRECIATION ACCOUNTING:
THEORETICAL AND PRACTICAL APPROACHES**

Aminboyev Jaloliddin Otabek o‘g‘li

Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti mustaqil izlanuvchisi

Annotatsiya

Mazkur maqolada amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlashning nazariy va amaliy yondashuvlari keltirilgan. Xususan, buxgalteriya hisobi va soliq solish maqsadlarida amortizatsiya hisoblashda foydali xizmat muddati va mulk huquqining o‘tishi ehtimolini asosiy mezon sifatida belgilab, hisob siyosatida aks ettirish taklif etilgan va tegishli xulosalar shakllantirilgan.

Kalit so‘zlar: amortizatsiya qilinadigan aktiv, asosiy vosita, nomoddiy aktiv, foydali xizmat muddati, foydalanish muddati, iqtisodiy xizmat muddati, foydalanish huquqidagi aktiv ijara muddati, ijara, amortizatsiya.

В данной статье представлены теоретические и практические подходы к определению срока полезного использования в амортизационном учете. В частности, при начислении амортизации в целях бухгалтерского учета и налогообложения в качестве основных критериев предлагается определить срок полезной службы и вероятность перехода права собственности, отразить их в учетной политике и сформировать соответствующие выводы.

Ключевые слова: амортизируемый актив, основное средство, нематериальный актив, срок полезного использования, срок полезного использования, срок экономической службы, срок аренды актива на праве пользования, аренда, амортизация.

This article presents theoretical and practical approaches to determining the useful life in depreciation accounting. In particular, when calculating depreciation for accounting and tax purposes, it is proposed to determine the useful life and the probability of transfer of ownership rights as the main criteria, reflect them in the accounting policy, and form relevant conclusions.

Keywords: depreciable asset, fixed asset, intangible asset, useful life, useful life, economic service life, lease term, lease, depreciation.

Amortizatsiya qilinadigan aktivlar xizmat muddatini to‘g‘ri aniqlagan holda belgilash, ular qiymatini foydalanish davrlari bo‘yicha iqtisodiy jihatdan asosli taqsimlashni ta‘minlab, moliyaviy natijalarning ishonchligi, soliq bazasining obyektiv shakllanishi va boshqaruv qarorlarining samaradorligini kafolatlaydi. Shu bois, birinchi navbatda amortizatsiya qilinadigan aktivlar xizmat muddatini aniqlash muhim bo‘lib, xizmat muddatlarini aniq bo‘lishi amortizatsiya summasiga ta‘sir qiladi va bu o‘z navbatida xarajat, foyda va foyda solig‘i summalariga ta‘sir qiladi. Bundan kelib chiqadiki, amortizatsiya hisoblash maqsadida amortizatsiya qilinadigan aktivlar xizmat muddatini aniqlanishi aktiv qiymatiga ham majburiyat qiymatiga ham, hatto daromad va xarajatlarni summasiga ham o‘z ta‘sirini o‘tkazadi.

Iqtisodiy manbalarda eng ko‘p qo‘llaniladigan tushuncha bu amortizatsiya qilinadigan aktivlarning foydali xizmat muddati tushunchasi bo‘lib, asosiy vosita, nomoddiy aktiv va boshqa amortizatsiya qilinadigan aktivlarga nisbatan ham ishlatiladi. Jumladan, iqtisodchi olimlar Z.N.Qurbanov va K.Misirovlar moliyaviy va boshqaruv hisobi nomli o‘quv-uslubiy asarida foydali xizmat muddatini quyidagicha ta‘riflaydi: “Foydali xizmat muddati – korxonadan tomonidan aktivdan foydalanish ko‘zda tutilgan davr yoki korxonadan ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori” [10].

N.B.Abdusalomovning yozishicha, “Foydali xizmat muddati – korxonadan tomonidan asosiy vositalardan foydalanishdan moliyaviy foyda olish ko‘zda tutilgan davr.

Asosiy vositalar obyekti texnik sharoitlarda bo‘lmagan taqdirda uning foydali xizmat muddati quyidagilardan kelib chiqib belgilanishi mumkin: — mazkur obyektning kutilayotgan ish unumi va quvvatiga muvofiq kutilayotgan xizmat muddati; — foydalanish rejimi, tabiiy sharoitlar va atrof-muhit ta‘siri, ta‘mirlash tizimiga bog‘liq holda kutilayotgan jismoniy eskirish; — texnik eskirishi va imkoniyatlarini yo‘qotishi; — mazkur obyektidan foydalanishni normativ-huquqiy va boshqa cheklolardan (masalan, obyektidan ijara shartnomasi bo‘yicha foydalanish)” [8].

K.B.Urazov va M.E.Po‘latovlar “Foydali xizmat muddati deganda asosiy vositaning korxonadan tomonidan belgilangan foydalanish muddati tushuniladi. Bu muddat yillarda yoki oylarda ifodalaniib, uning foydaliligi ishlab chiqilgan mahsulot (bajarilgan ish, xizmat) hajmi bilan o‘lchanadi. Foydali xizmat muddati davomida asosiy vositalar o‘zlarining qiymatini to‘liq qoplashlari va korxonaga qo‘shimcha daromad keltirishlari lozim.

Foydali xizmat muddati, odatda, asosiy vositaning texnik hujjatlarida ko‘rsatilgan bo‘ladi. Bunday hujjatlar mavjud bo‘lmaganda asosiy vositalarning foydali xizmat muddati qabul qilish komissiyasi tomonidan yoki korxonadan rahbari buyrug‘i bilan tasdiqlangan hisob siyosatida aniq belgilanishi kerak” [9] deb ta‘kidlashadi.

Xorijlik iqtisodchi olimlar Donald E. Kieso, Jerry J. Weygandt, Terry D. Warfield o‘z asarlarida foydali xizmat muddatini amortizatsiya qilinadigan aktivning iqtisodiy manfaat keltirish davri sifatida ta‘riflaydilar. Ularning fikricha, “foydali xizmat muddati fizik yemirilish bilan emas, balki iqtisodiy foydalanish imkoniyati bilan belgilanadi; menejment bahosi hal qiluvchi ahamiyatga ega; texnologiya tez o‘zgaradigan sohalarida xizmat muddati real fizik muddatdan qisqaroq bo‘lishi mumkin” [6].

Peter Waltonning ta‘kidlashicha, “foydali xizmat muddati — bu buxgalteriya bahosi emas, balki iqtisodiy prognoz kategoriyasi bo‘lib, u bozor konyunkturasi, innovatsion jarayonlar va raqobat

muhitiga bog‘liq holda shakllanadi” [7]. Fikrimizcha, bunday yondashuv subyektivlikni oshirib, buxgalteriya va soliq hisobining obyektivligini ta’minlashda qiyinchilik tug‘dirishi mumkin.

Amortizatsiya hisobida foydali xizmat muddatini aniqlashning nazariy va amaliy yondashuvlarini tadqiq qilib o‘rganishda ilmiy tadqiqot metodologiyasining nazariy va empirik tadqiqot metodlaridan foydalanildi.

O‘z navbatida, buxgalteriya hisobi milliy standartlariga e’tibor qaratadigan bo‘lsak, 5-sonli “Asosiy vositalar” BHMSda “foydali xizmat muddati — asosiy vositalarning tashkilot tomonidan foydalanadigan vaqt davri yoki ushbu aktivdan foydalanishdan olinishi kutilayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori. Qo‘shimcha qurish, qo‘shimcha asbob-uskunalar bilan ta’minlash, rekonstruksiya, modernizatsiya qilish va texnik qayta jihozlash bo‘yicha ishlar tugatilganidan so‘ng foydalanishga kiritilgan asosiy vositalar uchun foydali xizmat muddati bo‘lib ushbu ishlar tugatilganidan so‘ng mazkur asosiy vositalar foydalanishga kiritilgan paytdan boshlab tashkilot tomonidan asosiy vositalardan foydalaniladigan vaqt davri yoki tashkilot ushbu asosiy vositalardan foydalanishdan olishni kutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) miqdori hisoblanadi” [1]. Mazkur standartda berilgan ta’rif, foydali xizmat muddatini asosiy vositaning real ekspluatatsiya davri yoki undan olinishi kutilayotgan mahsulot (ishlar, xizmatlar) hajmi bilan bog‘liq holda belgilashni, shuningdek modernizatsiya va texnik qayta jihozlashdan so‘ng, uni qayta ko‘rib chiqish orqali amortizatsiyani aktivning yangilangan iqtisodiy salohiyatiga muvofiqlash-tirishni nazarda tutadi.

7-sonli “Nomoddiy aktivlar” BHMSda esa, nomoddiy aktivning “foydali xizmat muddati — tashkilot tomonidan aktivdan foydalanish ko‘zda tutilgan davr yoki tashkilot ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori [2] deb ta’riflangan.

Ushbu ikki ta’rif mazmunan bir xil bo‘lib, O‘zbekiston Respublikasi 5- va 7-sonli buxgalteriya hisobining milliy standartlarida ayrim so‘zlar turlicha talqin qilinganligi bilan farqlanadi. Xalqaro standartlarga ko‘ra, asosiy vositaning foydali xizmat muddati deyilganda aktivning tashkilot tomonidan foydalanishda davom etilishi kutilayotgan davr yoki tashkilot tomonidan ushbu aktivdan foydalanishdan olinishi kutilayotgan mahsulot yoki shunga o‘xshash birliklar soni tushunilishi keltirilgan [3]. Shuningdek, standart aktivdan kutilgan foydalanish hajmi, ishlab chiqarish quvvati yoki chiqarish birliklari, jismoniy eskirish, texnologik yoki tijorat jihatdan ma’naviy eskirish va huquqiy cheklovlarni hisobga olgan holda asosiy vositaning xizmat muddatini belgilashni tavsiya qiladi. Bundan shuni aytish mumkinki, standart asosiy vositaning xizmat muddatini yuqoridagi omillarni hisobga olgan holda har yili qayta ko‘rib chiqishni talab etadi.

Nomoddiy aktivlar foydali xizmat muddati ham xuddi shunday bo‘lib, 38-sonli buxgalteriya hisobining xalqaro standartiga ko‘ra, nomoddiy aktivlar *foydali xizmat muddati* bu — aktivning tashkilot tomonidan foydalanishda davom etilishi kutilayotgan davr yoki tashkilot tomonidan ushbu aktivdan foydalanishdan olinishi kutilayotgan mahsulot yoki shunga o‘xshash birliklar soni hisoblanadi [4]. Faqat mazkur standart nomoddiy aktivlar xizmat muddatini aniq va noma’lum muddatlarga tasniflaydi. Bunda nomoddiy aktivning foydalanish davrini ishonchli baholash mumkin bo‘lsa, aniq xizmat muddatiga ega deb hisoblanadi va amortizatsiya qilinadi. Agarda nomoddiy aktivning foydalanish muddati noma’lum muddatli deb tan olinsa, u amortizatsiya qilinmaydi, balki qadrsizlanishga tekshiriladi.

Me’yoriy-huquqiy hujjatlar sharhi shuni ko‘rsatadiki, buxgalteriya hisobining xalqaro va milliy standartlarida ham amortizatsiya qilinadigan aktivlarning foydali xizmat muddati bo‘yicha iqtisodiy mazmuni jihatdan bir xil ta’rif berilgan. Bu esa, bir qancha standartlarda bir xil tushunchani takrorlamasdan, korxonalar hisob siyosatida amortizatsiya qilinadigan aktivlar uchun foydali xizmat tushunchasiga yagona ta’rif shakllantirishi va shu asosda hisob yuritish maqsadga muvofiq degan xulosani shakllantiradi (1-jadval).

1-jadval

Foydali xizmat tushunchasining me’yoriy-huquqiy hujjatlardagi talqini [1]

Me’yoriy-huquqiy hujjat	Me’yoriy-huquqiy hujjatda berilgan ta’rif
Buxgalteriya hisobining milliy standarti (5-son BHMS) “Asosiy vositlar”	asosiy vositalarning tashkilot tomonidan foydalanadigan vaqt davri yoki ushbu aktivdan foydalanishdan olinishi kutilayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori

Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-son BHXS) “Asosiy vositlar”	Foydali xizmat muddati bu: (a) aktivning tadbirkorlik subyekti tomonidan foydalanishi uchun yaroqli bo‘lishi kutilgan davr; yoki (b) tadbirkorlik subyekti tomonidan aktivdan olinishi kutilgan ishlab chiqarish hajmi (miqdori) yoki shunga o‘xshash birliklar soni.
Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (16-son BHXS) “Ijara”	ijara muddati boshlanishidan keyin qolgan, lekin ijara muddati bilan chegaralanmagan, baholangan davr bo‘lib, bu davr mobaynida aktivda mujassamlangan iqtisodiy naf tadbirkorlik subyekti tomonidan foydalanishi kutiladi.
Buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-son BHMS) “Nomoddiy aktivlar”	tashkilot tomonidan aktivdan foydalanish ko‘zda tutilgan davr yoki tashkilot ushbu aktivdan foydalanishdan olishni mo‘ljallayotgan mahsulot (ishlar va xizmatlar) miqdori
Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (38-son BHXS) “Nomoddiy aktivlar”	aktivning tashkilot tomonidan foydalanishda davom etilishi kutilayotgan davr yoki tashkilot tomonidan ushbu aktivdan foydalanishdan olinishi kutilayotgan mahsulot yoki shunga o‘xshash birliklar soni
O‘zbekiston Respublikasi Soliq kodeksi	Foydali xizmat muddati keltirilmagan, ammo, soliq solish maqsadida amortizatsiya normasi keltirilgan va shu asosida aniqlash mumkin.

Tadqiqot natijalari shuni ko‘rsatadiki, foydali xizmat muddati va iqtisodiy xizmat tushunchalaridan nafaqat amaliyotda o‘z ma‘nosida foydalanilmaydi, balki me‘yoriy-huquqiy hujjatlarda ham boshqacha talqin qilinmoqda. Jumladan, qoidaga ko‘ra, nomoddiy aktivning foydali xizmat muddati har bir hisobot yili oxirida qayta ko‘rib chiqiladi, agar:

kelgusi davrda aktivning foydali xizmat muddatining o‘zgarishi yoki kelgusidagi iqtisodiy foydani olish shartlarining o‘zgarishi kutilayotgan bo‘lsa (nomoddiy aktivlarni yaxshilashga va mos ravishda, ularning foydali xizmat muddatini oshishiga yoki qisqarishiga olib keladigan xarajatlarni hisobga olgan holda);

prognozlar dastlabki baholardan sezilarli darajada farq qilsa (bunda, hisobot va kelgusi davrlar uchun amortizatsiya summasini ko‘paytirish yoki kamaytirish talab etiladi).

Ushbu tartibdan ham ko‘rishimiz mumkinki, bu yerda foydali xizmat muddati tushunchasi undan korxonada foydalanishini ifoda etmayapti, balki undan to‘liq (kim tomonidan foydalanilsa ham) foydalanishdagi muddatini ifoda etyapti. Bu esa, foydali xizmat muddati emas – iqtisodiy xizmat muddatidir.

1-jadval ma‘lumotlaridan ko‘rishimiz mumkinki, buxgalteriya hisobining milliy va moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarida foydali xizmat muddat tushunchalari asosiy vositalar va nomoddiy aktivlar bo‘yicha bir xil mazmunda berilgan. O‘zbekiston Respublikasi soliq kodeksida esa, asosiy vositalarga amortizatsiya hisoblashda qo‘llaniladigan minimal norma belgilangan bo‘lib, shundan kelib chiqib soliq solish maqsadida foydali xizmat muddatini aniqlash mumkin. Biroq, soliq kodeksidagi norma – bu asosiy vositaning iqtisodiy xizmat muddatiga ko‘proq to‘g‘ri keladi. Chunki, korxonada asosiy vositadan qancha foydalanishidan qat‘i nazar, soliq solish maqsadida soliq kodeksidagi normadan foydalanadi. Bu esa, korxonada amortizatsiya qilinadigan aktivdan qancha foydalanishiga qarab aniqlanadigan muddat bo‘lmaganligi bois, foydali xizmat muddatidan ko‘ra, iqtisodiy xizmat muddatiga to‘g‘ri keladi.

Odatda asosiy vositaning foydali xizmat muddati tushunchasi amaliyotda asosiy vositaning butun ishlash davri, ya‘ni, uning ishlatilishi mumkin bo‘lgan davrini ifodalashi tushuniladi. Biroq, mazmunan va amaliy jihatdan ko‘radigan bo‘lsak, bu tashkilotda necha yil ishlatilsa, o‘sha uning foydali xizmat muddatidir. Aytaylik, bir texnika 10 yil xizmat qilishi ishlab chiqaruvchi yoki mutaxassislar tomonidan belgilangan, ammo, korxonada uni 8 yil ishlatmoqchi. Bunda korxonada uchun ushbu texnikaning foydali xizmat muddati 8 yil. Garchi u, 10 yil iqtisodiy jihatdan foydali xizmat

muddatiga ega bo‘lsa ham. Ya’ni, uning jami xizmat davriga emas, foydali xizmat muddatiga amortizatsiya hisoblanadi.

Umuman olganda, asosiy vositalar bo‘yicha muddatga oid uchta tushunchani farqlash maqsadga muvofiq. Ya’ni, ijaraga olingan muddati, korxonada foydalaniladigan muddat hamda iqtisodiy xizmat muddati. Bu uchala muddatlarni farqlashning korxonaga uchun muhimligi shundan iboratki, korxonaga ijaraga olingan muddati davomida unga ijara obyekti sifatida amortizatsiya hisoblaydi. Ammo, bunda turli amortizatsiya usullarini qo‘llay olmay, foydalanish huquqi asosida olingan aktivni teng ulushlarda amortizatsiya qiladi. Shu bilan birga, iqtisodiy xizmat muddati uning butun foydalanish, ijara va undan keyingi foydalanish davrini (hisobdan chiqarilgandan keyin) ifodalaydi. Aytaylik, asosiy vosita keyinchalik xarid qilish sharti asosida moliyaviy ijara olindi. Uning ijara asosidagi xizmat muddati 10 yil, korxonaga undan 20 yil foydalanmoqchi. Aslida, ushbu asosiy vositaning iqtisodiy xizmat muddati 25 yil. Demak, bunday holatda korxonaga uchala xizmat muddatini ham asosiy vositadan foydalanish samarasini oshirish uchun hisobga olishi maqsadga muvofiq.

Foydalanish huquqidagi aktivning foydali xizmat muddati tashkilot tomonidan foydalanish uchun aktiv mavjud bo‘lgan davr; yoki tashkilot aktivdan foydalanishdan olishni kutayotgan mahsulot birliklari yoki shunga o‘xshash birliklar soni hisoblanadi [5]. Bunday tushuncha 16-sonli BHXSda keltirilmagan bo‘lsa-da, asosiy vositalar standartiga havola berilgan holda, asosiy vositalar foydali xizmat muddatiga berilgan ta’rif foydalanish huquqi asosidagi aktivga ham taalluqli ekanligi e’tirof etilgan.

Foydalanish huquqi asosidagi aktiv bo‘yicha yana bir tushuncha keltirilgan bo‘lib, u foydalanish muddatidir. Unga ko‘ra, xaridor bilan shartnomani bajarish uchun aktivdan foydalaniladigan umumiy davri (shu jumladan ketma-ket kelmaydigan davrlar) uning foydalanish muddatidir.

Mazkur tushunchalarga qaraydigan bo‘lsak, foydalanish muddati bu shartnomaga ko‘ra, undan foydalanadigan davr, ya’ni, ijara muddati bo‘lsa, foydali xizmat muddati deyilganda bir muncha boshqacharoq ma’no ifodalanadi. Ya’ni, foydali xizmat muddati foydalanish huquqi asosidagi aktivdan olinadigan mahsulot miqdoriga ham bog‘liqligi bilan farqlanadi.

Monografik tadqiqot obyekti bo‘lgan “Navoiyazot” AJning amortizatsiya qilinadigan aktivlari dinamikasi tahlil qilib o‘rganilganda quyidagi ma’lumotlarga ega bo‘lindi (2-jadval).

2-jadval ma’lumotlaridan ko‘rinadiki, “Navoiyazot” AJ asosiy vositalarining 2025-yil boshida 2021-yilga nisbatan boshlang‘ich qiymati 16519622552 ming so‘mga yoki 2131 foizga, jamg‘arilgan eskirish summasi esa, 3987682888 ming so‘mga yoki 826 foizga ortgan. Bunday keskin o‘zgarishlar, asosiy vositalar hajmining yillar davomida ortishi va ularga mos ravishda eskirish summalarining hisoblanishi natijasida yuzaga kelgan. Chunki, asosiy vositalarning 2024-yil boshiga nisbatan boshlang‘ich qiymati 193744104 ming so‘mga yoki 1,1 foizga, jamg‘arilgan eskirish summasi esa, 610220369 ming so‘mga yoki 15,8 foizga ko‘payib kuzatilgan. Ya’ni, 2024-yilda o‘tgan yilga nisbatan aksiyadorlik jamiyatida 193744104 ming so‘mlik yangi asosiy vositalar kirimi yuzaga kelgan. Lekin, mavjud asosiy vositalarga to‘liq eskirish hisoblanishi, jamg‘arilgan eskirish summasi 15,8 foizga oshgan. Natijada, 2025-yil boshiga nisbatan asosiy vositalarning qoldiq qiymati 416476265 ming so‘mga yoki 3,1 foizga kamaygan.

“Navoiyazot” AJning nomoddiy aktivlari ham 2025-yil boshida 2021-yilga nisbatan boshlang‘ich qiymati va jamg‘arilgan eskirish summalarida o‘sish kuzatilgan. Biroq, 2024-yil boshiga nisbatan nomoddiy aktivlarning boshlang‘ich qiymati 57472 ming so‘mga yoki 2,3 foizga kamayganligini ko‘rish mumkin. Aksincha, jamg‘arilgan eskirish summasi 302759 ming so‘mga yoki 44,7 foizga ortgan. Bunday o‘zgarishlarni nomoddiy aktivlarning chiqimi va hisobot davrida mavjud nomoddiy aktivlarga to‘liq eskirish hisoblanganligi bilan izohlash mumkin.

Shuni ta’kidlab o‘tish joizki, 2-jadval ma’lumotlari BHMS muvofiq tuzilgan “Navoiyazot” AJ moliyaviy hisobotining “Buxgalteriya balansi” shaklidan olingan ma’lumotlar asosida shakllantirilgan bo‘lganligi bois, asosiy vositaning tarkibini to‘liq izohlash imkoniyati mavjud emas. Chunki, asosiy vositaning tarkibida moliyaviy ijara olingan aktivlar, moliyaviy hisobotning xalqaro standartiga ko‘ra foydalanish huquqidagi aktiv ham kiritilgan bo‘lishi mumkin.

“Navoiyazot” aksiyadorlik jamiyati amortizatsiya qilinadigan aktivlari dinamikasining tahlili [2]

Ko‘rsatkichlar	Hisobot davri					01.01.2025-yilda 01.01.2021-yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-)		01.01.2025-yilda 01.01.2024-yilga nisbatan o‘zgarishi (+;-)	
	01.01.2021	01.01.2022	01.01.2023	01.01.2024	01.01.2025	Mutlaq	Foiz	Mutlaq	Foiz
1. Asosiy vositalar, ming so‘m									
<i>Boshlang‘ich qiymati</i>	775190478	11973473488	17081283376	17101068926	17294813030	+16519622552	2131	+193744104	1,1
<i>Eskirish summasi</i>	482701457	1254820191	2886583439	3860163976	4470384345	+3987682888	826	+610220369	15,8
<i>Qoldiq qiymati</i>	292489021	10718653297	14194699937	13240904950	12824428685	+12531939664	4284	-416476265	-3,1
2. Nomoddiy aktivlar, ming so‘m									
<i>Boshlang‘ich qiymati</i>	143478	160864	2472536	2509994	2452522	2309044	1609	-57472	-2,3
<i>Eskirish summasi</i>	62212	88754	295558	677319	980078	917866	1475	302759	44,7
<i>Qoldiq qiymati</i>	81266	72110	2176978	1832675	1472444	1391178	1711,9	-360231	-19,6

O‘rganishlar shuni ko‘rsatdiki, asosiy vositalar va nomoddiy aktivlarga oid buxgalteriya hisobining milliy yoki xalqaro standartlarida amortizatsiya qilinadigan aktivlarning iqtisodiy xizmat muddati tushunchalari izohlanmagan. 16-sonli “Ijara” MHXSda esa, iqtisodiy xizmat muddati aktivni bir yoki bir nechta foydalanuvchilar tomonidan iqtisodiy foydalanishi kutilayotgan muddat yoki bir yoki bir nechta foydalanuvchilar aktivdan olishi kutilayotgan mahsulot birliklari yoki shunga o‘xshash birliklar soni ekanligi e’tirof etilgan [5].

Bundan ko‘rinadiki, iqtisodiy xizmat muddati, foydali xizmat muddatiga nisbatan keng tushuncha bo‘lib, amortizatsiya qilinadigan aktivdan butun faoliyat davridagi xizmatini ifodalaydi.

Faqatgina nomoddiy aktivlar bilan bog‘liq xalqaro standartda aniq foydali xizmat muddatiga ega aktivning amortizatsiya qilinadigan qiymati uning tugatish qiymati chegirilgandan keyin aniqlanishi, tugatish qiymatining noldan farqlanishi tashkilotning mazkur nomoddiy aktivni uning iqtisodiy xizmat muddati tugashidan oldin realizatsiya qilishni kutayotganligini nazarda tutishi bo‘yicha norma keltirilgan [4].

Mazkur xalqaro standartda iqtisodiy xizmat muddati nima ekanligi bo‘yicha izoh keltirilmagan. Ammo, mazkur tushunchadan ham ko‘rishimiz mumkinki, foydali xizmat muddati tashkilotdan undan foydalanish davri, iqtisodiy xizmat muddati esa, nomoddiy aktivdan umumiy foydalanish davri bo‘lib, u aynan bitta tashkilotda foydalanilmasligi mumkin. Bunday yondashuvni asosiy vositalarga nisbatan qo‘llashda ularning moddiy aktiv ekanligini inobatga olish lozim. Chunki, asosiy vositalarni tugatish qiymati noldan farqlanishi uning iqtisodiy xizmat muddati va foydali xizmat muddati bir xil bo‘lganda ham bo‘lishi mumkin. Eskirgan, iqtisodiy jihatdan naf keltirmaydigan asosiy vositani ham qanchadir qiymatga sotish mumkinligi bilan izohlanadi.

Xulosa qilib aytganda, amortizatsiya qilinadigan aktivlar iqtisodiy xizmat muddati, foydali xizmat muddati va foydalanish huquqidagi aktiv ijara muddati tushunchalari amaldagi me‘yoriy-huquqiy hujjatlar hamda iqtisodchi olimlarning ilmiy va o‘quv-uslubiy asarlarida keltirilgan yondashuvlari o‘rganilgan holda shuni aytish mumkinki, amortizatsiya qilinadigan aktivlarga nisbatan mazkur muddatlar strategik va investitsion qarorlar qabul qilish jarayonida hisobga olinishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Biroq, buxgalteriya hisobi maqsadlarida ya’ni, amortizatsiya qilinadigan aktivlarga amortizatsiya hisoblashda foydali xizmat muddati va mulk huquqining o‘tishi ehtimolini asosiy mezon sifatida qarash lozim deb hisoblaymiz. Chunki, amortizatsiya qilinadigan aktivning foydali xizmat muddati, uning texnik jihatdan qancha muddat xizmat qilishi emas, balki buxgalteriya hisobi subyekti tomonidan undan iqtisodiy naf olish rejalashtirilgan davri hisoblanadi.

Shuningdek, amortizatsiya aktivning jismoniy eskirishini emas, uning qiymatini iqtisodiy naf keltirish davri davomida taqsimlashni ifodalaydi. Shu bois, har bir buxgalteriya hisobi subyekti o‘z tasarrufidagi amortizatsiya qilinadigan aktivlar bo‘yicha foydali xizmat muddatini iqtisodiy jihatdan asoslangan holda belgilashi va uni hisob siyosatida aks ettirishi maqsadga muvofiq hisoblanadi. Bu albatta, axborotdan foydalanuvchilarga amortizatsiya qilinadigan aktivlarning foydali xizmat

muddati to‘g‘risida iqtisodiy jihatdan asoslangan, sodda va tushunarli ma‘lumotlarni taqdim etish imkonini beradi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Buxgalteriya hisobi milliy standarti (5-sonli BHMS) “Asosiy vositalar”. <https://lex.uz/acts/821041>
2. Buxgalteriya hisobining milliy standarti (7-sonli BHMS) “Nomoddiy aktivlar” <https://lex.uz/acts/627308>
3. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (16-sonli BHXS) “Asosiy vositalar” <https://lex.uz/docs/6312360>
4. Buxgalteriya hisobining xalqaro standarti (38-son BHXS) “Nomoddiy aktivlar”. <https://lex.uz/docs/6312360>
5. Moliyaviy hisobotning xalqaro standarti (16-son MHXS) “Ijara”. <https://lex.uz/docs/6312360>
6. Donald E. Kieso, Jerry J. Weygandt, Terry D. Warfield. Intermediate Accounting. Wiley, IFRS Edition, 2018. Chapter 11 (Depreciation). 298 p.
7. Peter Walton. International Accounting. Cengage Learning, 2012. Chapter on Non-current assets. 352 p.
8. N.B.Abdusalomova. Buxgalteriya hisobi. Darslik. – T.: “Innovatsion rivojlanish nashriyot-matbaa uyi”, 2021 – 482 b.
9. Urazov K.B., Po‘latov M.E. Buxgalteriya hisobi. Darslik. –T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, 2021. -136 b.
10. Qurbanov Z.N., Misirov K. Moliyaviy va boshqaruv hisobi.–T.: “Iqtisod-Moliya”. 2019.– 449 b.

UDK:338.2

**СТРАТЕГИК МЕНЕЖМЕНТДА ҚАДРИЯТЛАР ЗАНЖИРИ:
РАҚОБАТБАРДОШЛИКНИ ОШИРИШНИНГ КОНЦЕПТУАЛ АСОСЛАРИ**

**ЦЕПОЧКА ЦЕННОСТЕЙ В СТРАТЕГИЧЕСКОМ МЕНЕДЖМЕНТЕ:
КОНЦЕПТУАЛЬНЫЕ ОСНОВЫ ПОВЫШЕНИЯ КОНКУРЕНТОСПОСОБНОСТИ**

**VALUE CHAIN IN STRATEGIC MANAGEMENT: CONCEPTUAL FOUNDATIONS FOR
INCREASING COMPETITIVENESS**

Maxramova Nigora Yuldashevna

Andijon davlat texnika instituti, “Menejment” kafedrasida katta o‘qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada strategik menejmentning muhim tarkibiy qismi bo‘lgan “Qadriyatlar zanjiri” modeli tahlil qilinadi. Maqolada korxonaning ichki jarayonlarini optimallashtirish orqali qo‘shimcha qiymat yaratish, xarajatlarni kamaytirish va bozorda barqaror raqobat ustunligiga erishish yo‘llari yoritilgan. Maykl Porter modelining asosiy va yordamchi jarayonlari batafsil tavsiflangan.

Kalit so‘zlar: qadriyatlar zanjiri, strategik menejment, qo‘shimcha qiymat, xarajat, raqobat, ta‘minot zanjiri.

В данной статье анализируется модель «Цепочки ценностей» (Value Chain), являющаяся важнейшим компонентом стратегического менеджмента. В работе освещаются пути создания добавленной стоимости посредством оптимизации внутренних процессов предприятия, сокращения издержек и достижения устойчивого конкурентного преимущества на рынке. Подробно описаны основные и вспомогательные процессы модели Майкла Портера.

Ключевые слова: цепочка ценностей, стратегический менеджмент, добавленная стоимость, затраты, конкуренция, цепочка поставок.